

YASHIL IQTISODIYOTNING MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Amirov Temur Mashrab o'g'li
SamISI "Iqtisodiyot nazariyasi"
kafedrasi asisstenti

Annotatsiya. Bu maqolada yashil iqtisodiyot, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish omillari, yashil iqtisodiyotning zarurligi va asosiy maqsadlari, energiya resurslaridan samarali foydalanish, energiya samaradorligi strategiyalari va yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Tayanch so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlari, energiya samaradorligi

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyo bo'yicha yashil iqtisodiyotning o'rnini juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shu jumladan xususan ekologiyaning buzilishining oldini olish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda xususiy sektorni jalb qilishning o'rnini va afzalliklari hamda yurtimizning yashil iqtisodiyotga o'tishi va xususiy sektorni iqlimni yaxshilashga yo'naltirilgan loyihalarini amalga oshirish hamda ustuvor sohalarni dekarbonizatsiya qilish, O'zbekiston hududida sanoat, ishlab chiqarish, koxonalar va texnikalarning modernizatsiyalashda yashil iqtisodiyotning o'rnini juda katta hisoblanadi.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o'n foizga

kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

Energiya samaradorligi iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida energiya manbalaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish sektori rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirish hamda energiya tejashning muhim omili bo'lib, bu o'z navbatida energiya xavfsizligiga, ish o'rinlari yaratilishiga, aholi farovonligining o'sishiga va mamlakatning rivojlanishi uchun jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Dunyoda ko'plab mamlakatlarda energiya iste'moli masalalari 1970-yillardan beri energiya samaradorligini oshirish bo'yicha davlat siyosati va maxsus dasturlar orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda sanoat sektori dunyodagi yillik birlamchi energiya iste'molining qariyb 40 foizini va global karbonat angidrid chiqindilarining taxminan shuncha qismini tashkil qiladi. Bu yo'nalishda ISO 50001 xalqaro standarti qabul qilingan bo'lib, u energiya samaradorligi masalalarini tartibga soladi.

Energiya resurslaridan samarali (ratsional), ya'ni oqilona foydalanishga qaratilgan jarayonlar majmui — energiya samaradorligiga beriladigan birlamchi ta'rifdir. Binolarning energiya ta'minoti yoki ishlab chiqarish jarayonlari uchun tejamli energiya sarflash evaziga kerakli natijaga erishish ham samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Texnika va texnologiya rivojlanishining hozirgi darajasida yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanishda iqtisodiy jihatdan asoslangan samaradorlikka erishish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilish ham shular jumlasidan.

Energiya samaradorligiga oid tushuncha va bilimlar majmui muhandislik, iqtisod, huquq va ijtimoiy sohalar kesimida qaror topadi va har bir jamiyat uchun "qulay" shakllanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yil 30-may kuni iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Taqdimotda yildan-yilga energiya resurslariga talab oshib borayotgan zamonda ulardan oqilona foydalanish, isrofgarchilikni kamaytirishni hayotning o'zi taqozo etayotgani ta'kidlandi. Shu maqsadda, 2024-yilda hududlarda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar shakllantirildi.

Ushbu maqsadli ko'rsatkichlar ishlab chiqarishga xalal bermagan holda energiya iste'molini samarali tashkil etish orqali muayyan hajmlarni tejashni nazarda tutadi. Shuningdek, iste'molchilarni energiya auditidan o'tkazishning yangi tartibi joriy etilmoqda. Unga ko'ra, energiya auditi faqat xalqaro standartlarga muvofiq o'tkaziladi. Audit asosida tashkilot va korxonalar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va ularning ijrosi nazorat qilinadi. Bu borada shaffoflikni ta'minlash uchun energiya auditi xulosalari va undan keyin erishilgan natijalar yillik biznes-rejalarga kiritilib, kuzatuv kengashida tasdiqlanadi. Har bir tashkilot rahbarlariga energiya samaradorligi bo'yicha KPI joriy etiladi.

Iste'molchilar tomonidan elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini buzganliklari uchun amaldagi tarifga o'suvchi koeffitsiyentni qo'llagan holda qayta hisob-kitob qilish, iste'molchilar tomonidan majburiy energiya auditi o'tkazish natijasida belgilangan chora-tadbirlarni muddatida bajarilmasligi, ushbu chora-tadbirlar bajarilishidan iqtisod qilinishi kutilgan yoqilg'i-energetika resurslari qiymati miqdorida jarima qo'llash tartibini joriy qilish masalasi o'rganilmoqda. Yana bir taklif — tashkilotlar, hududlar va ko'chmas mulk obyektlari kesimida energiya iste'moli reytingini joriy etish lozim. Bunda Energetika vazirligi tomonidan energiya sig'imi eng yuqori va eng past bo'lganlarning "10 taligi" yuritilib, ommaviy axborot vositalarida yoritib boriladi. Taqdimotda energiyani tejash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar va uni amalga oshirish choralari atroflicha muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni aloqador vazirlik va idoralar bilan birgalikda chuqur va puxta ishlab chiqish, ko'rsatkichlarni xalq deputatlari mahalliy kengashlari muhokamasiga kiritish maqsadga muvofiqligini ta'kidladi.\

2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasining to'rtta ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib asosiy e'tibor energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'zlashtirish, iqlim o'zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilganligini kuzatish mumkin .

Demak, strategiyada belgilangan birinchi ustuvor yo'nalish bo'yicha iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini 2030 yilga qadar 2

baravar oshirish vazifasi qo'yilgan. Jumladan, ushbu maqsadga sanoat korxonalarini infratuzilmasini modernizatsiyalash, sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga energiya samaradorligini 20%dan kam bo'lmagan miqdorga oshirish, motor yoqilg'isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarishni energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilash, elektr transportni rivojlantirish hisobiga erishish rejalashtirilgan, energiya sig'imi past bo'lgan mavjud quvvatdagi asbob-uskunalar va jihozlar uchun imtiyozli kreditlash tizimini joriy qilish; yuridik va jismoniy shaxslarning energiyani tejash va energiya samaradorligi bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish kerakligi ta'kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.«O'zbekiston – 2030» strategiyasi . PF 158-son 11.09.2023 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 noyabrdagi “Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3379-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4422-son Qarori
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiyamanbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4422-son Qarori
- 5.Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X. Yashil iqtisodiyot , Darslik- Toshkent: 2021.-261b.

6. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X. “YAshil iqtisodiyot” asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari. // Ilmiy elektron jurnali. XXI asr: fan va ta’lim masalalari”, №2, 2017.

7. Липина С.А., Агарова Э.В. Развитие зелёной экономики. Россия: возможности и перспективы.-М.: LENAND, 2018. - 328 с.

8. Adrian C. Newton. An Introduction to the Green Economy: 1st Edition. Routledge, 2014. - 382 p.